# MINTAQA SANOAT SEKTORIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL TUZILMALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘RNI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Nabiyev G’ulom Abdisalomovich**
*Urganch davlat universiteti*
*Iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur tezisda mintaqa sanoat sektorida raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirishda institutsional tuzilmalar tizimini takomillashtirishning dolzarbligi ilmiy asosda yoritilgan. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish davlatning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, tartibga solish mexanizmlarini liberallashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, innovatsion institutlar faoliyatini kuchaytirish va investitsion jozibadorlikni ta’minlash omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mintaqa sanoat sektorida barqaror raqobat muhitini shakllantirish uchun institutsional islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.*

**Kalit so’zlar:** *Raqobat muhiti, institutsional tuzilmalar, sanoat sektori, liberallashtirish, klasterlash, investitsiyalar, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik.*

**Asosiy qism.** Mintaqalarda sanoat tuzilmalarini rivojlanishida institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish va sanoatni innovatsion texnologiyalardan foydalangan xolda raqamlashtirilgan resurslarini ommoviy tarzda keng foydalanish istiqbollarini hisobga olgan xolda raqamli boshqaruvini takomillashtirishdan iboratdir. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslaridan foydalana olish samaradorligi kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy rivojlanish hozirgi davrda yangi bosqichga ko‘tarilib, yangi tizimni yaratdi. Bu esa o‘z navbatida mintaqada chuqur ilmiy izlanishlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi. Buning natijasida rivojlanishidagi asosiy omil - bu ilmiy tadqiqat ishlari, fan va ta’lim. Undan tashqari, shuningdek, ushbu tizimning asosiy jihati va samarasi bu yuqori texnika, raqamli va nanotexnologiya, mikrochiplar, suniy intelektlardir. Sanoat ijtimoiy ishlab chiqarishning mustaqil tarmog‘i sifatida vujudga kelishi hunarmandchilikning qishloq xo‘jaligidan ajralib chiqishi - ikkinchi eng yirik mehnat taqsimoti bilan bog‘liq. Kapitalistik sanoat G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 14—15-asrlarda paydo bo‘ldi va oddiy kapitalistik kooperatsiya, manufaktura va yirik mashina industriyasi — Mintaqalarda sanoat tuzilmalarini rivojlanishida institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish va sanoatni innovatsion texnologiyalardan foydalangan xolda raqamlashtirilgan resurslarini ommoviy tarzda keng foydalanish istiqbollarini hisobga olgan xolda raqamli boshqaruvini takomillashtirishdan iboratdir. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslaridan foydalana olish samaradorligi kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy rivojlanish

hozirgi davrda yangi bosqichga ko‘tarilib, yangi tizimni yaratdi. Bu esa o‘z navbatida mintaqada chuqur ilmiy izlanishlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi. Buning natijasida rivojlanishidagi asosiy omil - bu ilmiy tadqiqat ishlari, fan va ta’lim. Undan tashqari, shuningdek, ushbu tizimning asosiy jihati va samarasi bu yuqori texnika, raqamli va nanotexnologiya, mikrochiplar, suniy intelektlardir.

Sanoat ijtimoiy ishlab chiqarishning mustaqil tarmog‘i sifatida vujudga kelishi hunarmandchilikning qishloq xo‘jaligidan ajralib chiqishi - ikkinchi eng yirik mehnat taqsimoti bilan bog‘liq. Kapitalistik sanoat G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 14—15-asrlarda paydo bo‘ldi va oddiy kapitalistik kooperatsiya, manufaktura va yirik mashina industriyasi — fabrika bosqichlarini bosib o‘tdi, XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida manufakturadan mashina industriyasiga o‘tish dastlab Angliyada, keyinroq boshqa Yevropa mamlakatlarida sanoat too‘ntarishi tusini oldi. Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlarda Sanoat XIII asr boshidan manufaktura ko‘rinishida rivojlandi, XIX asrning 2-yarmidan mashina industriyasi taraqqiy etdi.

**Asosiy qism.** Dunyoda biz bilgan ilg‘or mamlakatlar AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya mamlakatlari hozirgi bosqichda bilimlar iqtisodiyotidan keng foydalanayotgan mamlakatlardir. Bu mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiyalarga e’tibor yuqori, ilm-fan va yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmatlar sohalari keng joriy etilgan.

Ta’kidlash kerakki, institutsional iqtisodiyotining innovatsion iqtisodiyotdan farqi shundan iboratki, agar birinchisida bilim bo‘lsa, u bozorga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qimmatli mahsulotga aylanadi. Ikkinchidan, bilim innovatsiyalarni yaratish uchun zarur shartdir, ammo u iqtisodiyotning ushbu turining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, uchinchidan, u iqtisodiyotga innovatsion ishlab chiqarish usullarini doimiy ravishda joriy etish, innovatsiyalar, texnologiyalarni sotish va sotib olishdir. Iqtisodiy rivojlanishning ushbu bosqichi o‘ziga yarasha takrorlanmas xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa:

1. Bilim (ta’lim, ilm-fan) kapital, yer, ishchi kuchi va boshqa klassik omillar bilan birga ishlab chiqarishning yangi omiliga aylangan. Bilim ishlab chiqarishning yana bir omili.

2. Yangi bilimlar avlodi ishlab chiqarishning mutlaqo yangi tarmog‘iga aylandi. Hozirda bilim (ta’lim, ilm-fan) tovar ko‘rinishini oldi.

3. Intellektual mulk ko‘rinishini olgan bilimlar iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Intellektual mulk ko‘rinishidagi bilimlar asosida zamonaviy olimlar aniq maqsadga egallaydi va ishlab chiqarishning muayyan sohasida qo‘llanilishi mumkin. Intellektual mulk ko‘rinishidagi bilim mahsulot sifatida ancha qimmatga tushadi, chunki u ma’lum bir hodisa to‘g‘risida ma’lumotlarning oddiy to‘plami sifatida emas, balki turli xil jarayonlarni optimallashtirish uchun amalda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan faktlar to‘plami sifatida paydo bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning iqtisodiy rivojlanishida ajralmas omilidir. Raqamli makonning shakllanish darajasi moddiy - texnologik bazaning yetukligi bilan bog‘liq. Bu shuni ko‘rsatadiki, sanoat tarmoqlarida qo‘llaniladigan texnologiyalar darajasi, birinchi navbatda, raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasini belgilaydi. Hamda raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan va raqamli o‘zaro manfaatdor bo‘lgan tarmoqlar oxir-oqibat eng keng va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, tez rivojlanishni namoyish etadi.

U nafaqat iqtisodiyotning barcha oldingi shakllaridan, balki postindustrial iqtisodiyotdan ilm-fan yangiliklarining tez rivojlanishi, axborotning hozirgi raqamli globallashuvi davrida elektron resurslarning ko‘pligi va asosan aqliy mehnat qadrlanishi bilan ajralib turadigan postindustrial raqamli-axborotlashgan iqtisodiyot sifatida chiqdi. U bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun qo‘yidagi chizmani keltiramiz (1-rasm).




**1-rasm. Mintaqa sanoat tuzilmasini institutsional iqtisodiyotini shakllantirish mexanizmi**.

1-rasmdan ko‘rib turganmizdek institutsional iqtisodiyotni shakllantirishda quyidagilarga tayanilishini ochib bera olamiz va mintaqa sanoati tuzilmasini retrospektiv tahlil qilish asosida, olimlarning iqtisodiy munosabatlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni boshqarish bo‘yicha fikrlarini umumlashtirib 1-jadvalga ko‘rsatildi.

**Xulosa.** Mintaqa sanoat sektorida raqobatni rivojlantirish institutsional bazaning takomillashuviga bevosita bog‘liqdir. Bozor mexanizmlarini kuchaytirish, qo‘llab-quvvatlovchi institutlar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, investitsion va innovatsion muhitni yaxshilash orqali sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligi oshadi. Bu esa iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi va mintaqaviy sanoat tuzilmasining modernizatsiyasiga keng imkoniyatlar yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q.X., Xolmatov A. “Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

2. Zokirova B.X. “Sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda investitsion omillarning roli”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

3. Porter M. “Competitive Advantage of Nations”. – London: Macmillan, 1990.

4. Perroux F. “Economic Growth and Regional Development Theory”. – New York, 1987.

5. Marshall A. “Principles of Economics”. – London: Palgrave Macmillan, 2013.

6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy ma’lumotlari: www.stat.uz (2020–2025 yillar).

7. UNIDO. “Industrial Development Report: Structural Change and Regional Industrialization”. – Vienna, 2023.

8. Jahon banki. “Uzbekistan Development Update: Industrial Growth Outlook”. – Washington, 2024.

9. OECD. “Economic Survey of Uzbekistan: Regional Development Priorities”. – Paris, 2022.

10. Xusanov O. “Sanoatni diversifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari”. – Toshkent: Iqtisod sirlari, 2023.